“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“**O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv***” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari / Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: 2026. -bet.
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SWUG2512

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:
Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Normamatov S.M. filologiya fanlari doktori (DSc), professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshini nishonlash tadbiriga bag‘ishlangan materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.

	Qadimgi turkiy yozma odgorliklarda ravishlarning tuzilish turlari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/BNWA2284	
13	**Эльнара ЯХЬЯЕВА,** Архаичные деепричастные суффиксы в языке шаха исмаила хатаи 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NJFL4673	**184**
14	**Pərvin BAYRAMOVA,** Lınguıstıc-pragmatıc factors ın effectıve communıcatıon10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/FJVD3339	**190**
15	**Meryem HAMIŞOĞLU,** First dictionary of Turkish "Devoni lug'atit-turk" plant names in Uzbekistan Turkish 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GOXC3737	**194**
16	**Rugiyye KARAKOÇ,** Diyaloglarda basit cümlelerin amaç ve anlamina göre türleri 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TKKE6177	**204**
17	**Ш. Э. НАГИЕВА,** Концепт времени в языке и его выражение в паремиях 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/UQAH7603	**208**

O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI

1	**Samixon ASHIRBOYEV,** 20-yillar matbuoti: Faxri Kamolning singarmonizm talqini 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IYBD6338	**215**
2	**Abdulhay SOBIROV,** O‘zbek areal tilshunosligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NDQE1005	**220**
3	**Murodqosim ABDIYEV, Salohiddin RAXMONOV,** Chandir shevasining ba’zi grammatik xususiyatlari xususida (pastdarg‘om tumani chandir qishlog‘i misolida) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DHJI2368	**226**
4	**Hamidulla DADABOYEV,** XI–XII asr turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimining “devonu lug‘otit turk”da aks etishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PTYD5470	**230**
5	**Nishonboy HUSANOV,** “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy” – o‘zbek shevalarini o‘rganishda muhim tarixiy manba 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MAKE1648	**234**
6	**Shukurjon NORBAYEVA,** Xorazm shevalari leksikasida substrat asosli birliklar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/EMTE8289	**244**
7	**Ibrohim DARVISHOV,**	**251**

O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI

20-YILLAR MATBUOTI: FAXRI KAMOLNING SINGARMONIZM TALQINI

THE 1920S PRESS: FAKHRI KAMOL’S INTERPRETATION OF SYNHARMONISM

Samixon Ashirboyev,
Tosh DO‘TAU Folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari doktori, professor
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IYBD6338

Annotation. *Uzbek dialectology has passed through complex stages. Its formation process was particularly intense. Here we refer to the language and spelling debates of the 1920s. It is known from the history of our science that under the leadership of the Jadids, issues such as the graphic system of the Uzbek literary language, the base dialect of the literary language, the laws operating in the Uzbek language, particularly the issue of synharmonism, were comprehensively discussed. Especially the issue of synharmonism did not leave the pages of conferences dedicated to language and spelling and the press of that period, and various points of view were freely expressed. In this regard, the debates on synharmonism are of particular importance. In this process, not only the Jadids but also most individuals who considered themselves involved in spelling participated. Among them, Faxri Kamol, who began his scientific activity already in that period, published serious articles in the press under the names Faxri and “Synharmonist” and illuminated the theory and practice of synharmonism based on the knowledge of his time. This article analyzes Faxri’s point of view on synharmonism.*

Keywords: *dialect, synharmonism, labial harmony, “preservation of morphological unity”, thickness, thinness.*

Kirish. O‘zbek tilshunosligi va shevashunosligi tarixida 20-yillar muhim o‘rin tutadi. Bu davrda matbuot va turli darajadagi konferensiyalarda adabiy til va uning imlosi masalasi ko‘ndalang qo‘yilgan edi. Bu masala tilshunoslikdagi bir qator muammolarni yechishga olib kelgan, ya’ni adabiy til uchun tayanch dialektni belgilash, unli va undosh fonemalarni tanlash, shevalarda amal qiladigan qonunlardan foydalanish kabi masalalar ko‘tarilgan hamda bu munozaralarda jadidlar faollik ko‘rsatganlar. Ulardan ayrimlarining maqolalari avvalgi maqolada tahlil qilindi [Ashirboyev, 2025, 3]. Bunday munozaralar to 1929-yilgi O‘zbekiston til va imlo konferensiyasiga qadar davom etgan. Bu munozaralarda Faxri Kamolov ham ishtirok etgan. Uning bu davr matbuoti: “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1928-yil 38-sonidagi “Yana til-imlo masalasi ustida”, “Sharq haqiqati” gazetasining

1929-yil 31-sonidagi “Singarmonizm”, shu gazetaning 1929-yil 39-sonidagi “Imlo va yozuvimizda birlik” maqolalari bizga ma’lum.

Faxri dastlabki maqolasida mualliflik nomini ko‘rsatmagan va “singarmonizmchi” deb yozib qo‘ygan [Xudoyberdiyev 2024, 123], xolos.

Asosiy qism. Ma’lumki, 20-yillarda o‘zbek shevalari ilmiy asoslarda kam o‘rganilgan.. Lekin o‘zbek shevalarining ilmiy-amaliy muammolari vaqtli matbuotda keng munozara qilingan. Bu munozaralarda shevalarga oid ma’lumotlar ko‘proq til-imlo muammosi bilan bog‘langan. Faxri ham singarmonizm masalasini yoritishda davr lingvistik an’analaridan, saviyasidan chiqib ketmagan.

Faxri har uchala maqolasida singarmonizmni asoslashda unga imloning uzviy masalasi sifatida qaraydi. Dastlab u imlo munozaralaridagi noxushliklardan norozi bo‘ladi-da, arabcha so‘zlarning singarmonizmga amal qilishi to‘g‘risidagi fikri bilan bu muammoni qo‘zg‘aydi. Shu o‘rinda u *singarmonizm* terminini ham, *qalinliq, ingichkalik* terminini ham qo‘llaydi. Ko‘rinadiki, Faxri bu masalada davr an’anasini buzmagan. Avvalo u ushbu masalaga kirishishdan oldin vaqtli matbuot sahifalaridagi “*ilgarigi vaqtlarda ko‘proq yarim jadid, dinchi kishilar qarshi (singarmonizmga – A.S.) bo‘lsalar, hozir buning teskarisicha tuzukkina kishilar qarshi bo‘lmoqdalar. Bularning da’volaricha, chet so‘zlar singarmonizmga tobe bo‘lmaydilar”* kabi qarashlar mavjudligidan noliydi. Bu o‘rinda *yarim jadid, tuzukkina kishilar* tushunchasini anglash mushkul bo‘lib, bizning nazarimizda, *yarim jadidlar* deganda jadidlarga ergashuvchilar, *tuzukkina kishilar* deganda xat-savodi bo‘lgan mustaqil fikrlaydigan, ya’ni jadidlarga ergashmaydigan shaxslar (maktab o‘qituvchilari, matbuot xodimlari) ko‘zda tutilgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. “Chet so‘zlar” deganda arab va fors so‘zlarini nazarda tutmoqda. Ha, bunday so‘zlarning singarmonizmga bo‘ysunish va bo‘ysunmasligi masalasi alohida masala bo‘lib, uning shevalarda amal qilishi maxsus tadqiqotni talab qiladi. Ma’lumki, o‘zbek tili tarixida bunday so‘zlarda singarmonizm buzilishi to‘g‘risida fikr yuritiladi [Щербак 1962, 73], lekin hozirgi o‘zbek shevalarida uning amal qilishi to‘g‘risida tayinli fikr aytish mushkul, faqat hozirgi Turkiston shevasida arab va fors so‘zlari to‘liq singarmonizmga bo‘ysunadi [Мухамеджанов 1970, 11]. Faxri bunday so‘zlarning singarmonizmga boysunmasligini, shuning uchun ularga ayrim erkinliklar beriladi degan fikrini ketirib ularga nisbatan jiddiy e’tiroz bildiradi va: “*Bu nima demak, bir mamlakatda necha turluk qonun bo‘ladi? Bu boshvoqsizliq emasmi?*” degan jumlani ishlatadi hamda bu fikrni kengaytirib quyidagilarni keltiradi:

ilmiy negizda ish yurituvchilar (maorif komissarligi) masalaga to‘g‘ri qaraydi;
ikki yuzlama kishilar. Faxri ularni ilmdan yiroq deb biladi;

Cho‘ponzodani tanqid qiladi. Uning keltirishicha, Cho‘ponzoda Toshkent Ittifoq lotinchilarining plenumida umumturk tili to‘g‘risida ma’ruza qilib, turkiy tillar singarmonizmdan yiroqlashib bormoqda va qisman saqlanib qolgan degan ekan;

Y.D.Polivanovni ham tanqid qiladi. Aftidan, uning adabiy til singarmonizmdan holi bo‘lgan til bo‘lishi lozimligi to‘g‘risidagi, xususan, “Краткая

грамматика узбекского языка” asari bilan tanish bo‘lgan. Unda adabiy til Toshkent shevasi misolida beriladi. Tanqid yakunida ularni adabiy tilni “yiqitmoq” istovchilar va uning kelgusidagi istiqbolini tushunmaydiganlar deb yuritadi.

Faxri o‘tgan asrning 30-yillardagi “boshboshdoqlik”larni faqat singarmonizmning hal qilinishi bilan bog‘laydi, lekin jiddiy muammo borligini ham tilga oladi, bu ham bo‘lsa, “chet so‘zlar” masalasi edi va bunda singarmonizmga qarshi bo‘lganlarning da’vosini, ya’ni o‘zlashgan so‘zlarning singarmonizmga bo‘ysunmasligi to‘g‘risidagi iddaosini keskin qoralaydi va bunga javoban ularning ham singarmonizmga bo‘ysunishi bo‘yicha bir qator misollarni isloh qilingan alifboda ikki ustunga teradi (biz ularni hozirgi alifboda va traskripsiyada oldinma-keyin beramiz): ijora-*iƶärä,* bechora-*bečärä,* sharofat-*šäräfät*, salomat-*sälämät*, soat-*saat*, arosat- *äräsät*, farosat-*färäsät,* koranda-*käränd*ä, doka- *däkä*, kog‘az-*qag‘az.* Ko‘rinadiki, Faxri arabcha va forscha so‘zlarni bu o‘rinda singarmonizmga bo‘sundira olgan. Bu shunchaki bo‘ysundirish emas, balki aksariyat shevalarimizda ham transkripsiyada keltirilgan so‘zlar shunday talaffuz qilinadi, faqat **f** undoshini u shevada emas, adabiy tilda qo‘llanishini ko‘zda tutgan.

Faxri ikkinchi maqolasida singarmonizmga ta’rif beradi: “ … *so‘zning yo‘g‘onligi va ingichkaligi demakdir*” va uning qabul qilinganligi, shu munosabat bilan til va imloning tartibga tushganligini e’tirof etadi hamda u yo‘lga qo‘yilgandan keyingi ikki davr haqida fikr yuritadi:

1.“Qalin” so‘zlardagi **a, x, g‘ (ɑ), q**; “ingichka” so‘zlardagi **k, g, ə, e** harflarining hammaga tanishligini ayta turib, ularning singarmonizmni ifoda qilishdagi o‘rniga nisbatan noto‘g‘ri xulosa chiqaradi. Uningcha, bu tovushlarga suyanib singarmonizmni belgilash “*ko‘p so‘zlarimizni chegaradan chiqardi*”. Buni quyidagi misollarda isbotlamoqchi bo‘ladi: “qalin so‘zlarda *ɑıldıraq, ɑajratliq, pırqa, xususıjat, ɑam*; ingichka so‘zlarda *kəmsəməl, kətib, kəmil*” yozib kelinganini ta’kidlaydi. Bu so‘zlar uning qarashi bo‘yicha tahlil qilinadigan bo‘lsa, so‘zlarni singarmonizmga bo‘ysundirishda, ya’ni dastlabki bo‘g‘inda **ɑ** undoshi qo‘llangani uchun *g‘ildirak* so‘zi ***ɑıldıraq****, g‘ayratlik* so‘zi ***ɑajratliq***; **q** undoshi qatnashganligi uchun esa *firqa* so‘zi ***pırqa***, *xususiyat* so‘zi ***xususıjat*** yozilishi kerak. Shuningdek, singarmonizmni qo‘shma so‘zlarda saqlash uchun ularni ***Taš – kent, häkim-ƶan, Zärifä-xan*** shaklida, hatto qo‘shma so‘zligi unutilgan *kambag‘al* so‘zini ***käm-bayal*** tarzida yozilayotganini eslatadi. Albatta, bunday sun’iylikka yo‘l qo‘yilishini ayblaydi. Bundan muallifning singarmonizmdan chekinadigan holatlar ham mavjud ekanligi haqida fikr yuritmoqchi bo‘lganligini anglash qiyin emas, lekin bunday fikrni ochiq aytmaydi. Aslida u singarmonizmdan chekinish mavjud demoqchi.

2. “Yangi alifbe qabul qilingandan song, singarmonizm ovozasi ochiq, aniq eshitildi”,- deydi va shu munosabat bilan uning ta’rifi paydo bo‘lganligiga ishora qiladi: “*Singarmonizm so‘zimizning bosh bo‘g‘imidag‘i cho‘zg‘ilarg‘a rioya etib, qalin cho‘zg‘i kelsa, qalin; ingichka cho‘zg‘i kelsa, ingichka yoziladi*” qoidasini beradi. Faxri bu qoidaga ham tanqidiy qaraydi va uning ham **q, g‘, x, k, g** harflariga (?) bog‘liq bo‘lib qolganligi unga erish tuyilgan hamda *Ilhəm, şəkir, insən ikrəm* yozilayotganinini tanqid qiladi. Xullas, bu maqolasida Faxri arab va fors tilidan

o‘zlashgan so‘zlarni bu qonunga moslashtirish tarafdori bo‘lmagan, shuning uchun ham *xəlq, qədəm, qələbə, qəzəb* so‘zlarini shu ko‘rinishda yozishni tavsiya qiladi. Bunda Faxri bir qoidaga, ya’ni ko‘rsatilgan undosh tovush singarmonizm qoidasiga amal qilishda hal qiluvchi vazifasini bajarishiga tamomila qarshi bo‘lganligini payqash qiyin emas, balki uni belgilashda tilimizdagi 9 unliga asoslanish lozimligini uqtiradi. O‘zining bu fikrini yana oydinlashtiradi hamda **a, o, u, uv, ïj** unlilari orqa qator unlilari uyg‘unlashuvini, uning so‘zi bilan ifodalaydigan bo‘lsak, “qalinlikni”; **ə, ɵ, y, i, e, yv, ij**[1] unlilari old qator unlilar uyg‘unligini, yani “ingichkalikni” ifoda qilishi asos qilib olinishi lozimligini bayon qiladi. Shu o‘rinda ayrim transkripsion belgilar to‘g‘risida izoh berish lozim bo‘ladi: **ı** harfi hozirgi joriy transkripsiyada ï harfiga, **u** harfi esa **ü** harfiga korrelatsiya bo‘ladi. Bu o‘rinda Faxri bir muammoni, ya’ni undoshlarning singarmonizmni belgilashda rol o‘ynamasligini isbotlamoqchi bo‘lib, o‘zlashgan (uningcha, chet so‘z) so‘zlarni singarmonizmga amal qilmagan tarzda berishi o‘zining avvalgi fikriga zid bo‘lib qolgan. Qolaversa, chuqur til orqa va sayoz til orqa undoshlar ba’zan singarmonizmni saqlashda ahamiyatli ekanligini to‘liq tushunib yetmagan. Bu masalada yana qo‘shimcha qilish mumkinki, bir qator shevalarimizda, jumladan, Turkiston shevasida tanglay garmoniyasi arab va fors so‘zlarida ham saqlanadi (Muhammadjonov 11). Demak, Faxri o‘zbek shevalari to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmaganligi ma’lum bo‘ladi.

Faxri singarmonizmning qo‘shma so‘zlarda amal qilishini uning tarkibidagi so‘zlar mustaqilligini saqlaydi deb tushunadi. Shuningdek, o‘zbekcha so‘zlarda 100% singarmonizmning amal qilishiga ishonch bildiradi, lekin “ora yo‘lda qolgan” chet so‘zlar ham mavjudligini qayd qiladi (lekin “chet so‘z”ga izoh bermaydi), uning birdan-bir yechimini “chet so‘zlardan qochish” deb hisoblaydi, ya’ni o‘zlashgan so‘zlarni iloji boricha qabul qilmaslikni ko‘zda tutmoqda. Shuningdek, u keyingi maqolasida quyidagi kabi masalalarni qo‘zg‘aydi:

-singarmonizm borasida yozilgan maqolalarni tahlil qiladi va singarmonizmning amal qilishidagi undosh tovushlarning ishtirokini yana bir bor inkor etadi, bunga asos qilib *sinib, tinib* so‘zlarini misolga keltiradi;

- singarmonizmga rioya qilishda “istisno” va “mustasno”larni hisobga olishga ham qo‘shilmaydi. Aslida singamonizmdan chekinadigan holatlar shevalarimizda bor (Qarang: Ashirboyev 2021,39);

- unli tovushlar singarmonizmni belgilashda asos bo‘lishi kerak. Bu fikr e’tiborli, lekin undoshlarning ham bu qonunning amal qilishida o‘ziga xos o‘rni bor.

-lab garmoniyasining mavjudligini inkor etmaydi, lekin uning so‘z o‘zagida amal qilishi va qo‘shimchalarga o‘tmasligini asoslaydi, bu fikrida asos bor;

- u “*sarfiy birlikni saqlab qolish*”degan tushunchani keltiradi. Uningcha, lab garmoniyasini qo‘shimchalarda ham saqlab qolish so‘z shakllarining haddan tashqari ortib ketishiga sabab bo‘ladi. Uning so‘zi bilan aytadigan bo‘lsak, 20ta so‘z o‘zagidan sun’iy ravishda 40ta, 30ta bo‘lsa, 60ta, 60ta bo‘lsa, 120ta shakl paydo bo‘ladi va o‘qitish ishlarida jiddiy qiyinchilik kelib chiqadi.

[1] **uv, ьj, yv, ij** tovush birikmalarining unli sanalganligi haqida qarang: Prof. Ƣazı Alım Junus. Ozbek tilining tovushlari / Maorif va o‘qitg‘uchi, 1927. -№12 (isloh qilingan arab grafikasida).

Faxrining maqolalaridan shunday umumiy xulosa kelib chiqadi: 9 unli tovushni (aslida fonema) qoldirish, singarmonizmga amal qilish (lab garmoniyasi bundan mustasno) o‘zbek tilining xususiyatini ta’minlay oladi. Ha, bunday xulosa 20-yillar uchun dolzarb edi va keyinchalik u ma’lum muddat amal qildi.

Foydlanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O‘zbek adabiy tili va labial singarmonizm / O‘zbekiston: til va madaniyat // Shevashunoslik. Folklorshunoslik, 2025. - №1.

2. Xudoyberdiyev J. O‘zbek tilidan singarmonizning chiqarilishi. – Toshkent: Bookmany print, 2024.

3. Мухамеджанов К. Туркестанский говор узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1970.